



Linguistic and linguocognitive analysis of the image of the mother in Utkir Khashimov's works

Munavvar FAYZULLAYEVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023
Received in revised form
15 September 2023
Accepted 25 October 2023
Available online
15 December 2023

Keywords:

image of the mother,
analysis,
linguostylistics,
linguocognitive feature,
genre,
subject.

ABSTRACT

This article describes Utkir Khashimov as a vivid representation of Uzbek prose, focusing on his portrayal of the soul's gem – the themes of mother's love, patience, contentment, endurance, and faith. It is evident in the works of our writer that the comparison of mothers worldwide, and the flawless and unique image of the mother, is skillfully depicted. Additionally, the linguostylistic and linguocognitive analysis of the mother's image is specifically addressed in the article.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp295-298>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'tkir Hoshimov asarlarida ona obrazining lingvostilistik va lingvokognitiv tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ona obrazi,
tahlil,
lingvostilistika,
lingvokognitiv xususiyat,
janr,
sujet.

Ushbu maqolada o'zbek nasrchiligining yorqin namoyondasi O'tkir Hoshimov, uning qalb gavhari tasviri, onalarning mehr-muhabbati, sabr-qanoati, bardoshi va iymoni tasvirlangan. Yozuvchimiz asarlarida dunyo onalari qiyosi, benuqson va betakror ona obrazi mohirona aks ettirilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari, aynan ona timsolining lingvostilistik va lingvokognitiv tahliliga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

¹ Teacher, Department of History and Grammar of the English Language, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: munavvar.samdchti@gmail.uz

Лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери в произведениях Уткира Хашимова

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образ матери,
анализ,
лингвистика,
лингвокогнитивный
признак,
жанр,
предмет.

В данной статье Уткир Хашимов представлен как выдающийся представитель узбекской прозы. Особое внимание уделено его мастерскому изображению жемчужины души – материнской любви, терпения, довольства, выдержки и веры. В произведениях этой писательницы умело проведено сравнение образов матерей со всего мира, подчеркивая их безупречность и уникальность. Также статья содержит детальный лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери.

KIRISH

Badiiy asarni adabiy-tanqidiy tahlil qilishda nafaqat ilmiy adabiyot nuqtai nazaridan, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham yondashuv zarurligi bir necha bor ta'kidlangan. Tilning estetik funksiyasining asosiy namoyon bo'lishi badiiy asar matni bo'lganligi sababli, ushbu funksiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika va lingvistik stilistika, tilshunoslik, tarix, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi sohalar birgalikda o'zaro ta'sir qiladi. Tilning estetik funksiyasi masalasi ikki asosiy fan o'rtasidagi murakkab masaladir. O'tgan asrning boshlarida ham bir qator tilshunoslar va adabiyotshunoslar ushbu muammoni ilmiy asosda o'rganish uchun alohida fanni shakllantirish kerak degan fikrni ilgari surdilar.

Ona – bu zot shunchalar ulug'ki, ta'riflashga til ojiz. Ona – muqaddas, mo'tabar, farzandini jondan suyguvchi inson. Onaning o'rnini hech kim bosa olmaydi. Shunday ekan, bu ulug'zot haqida she'r yozmagan, asar bitmagan, mushtipar onani tavsiflamagan ijodkor bo'lmas kerak. Mana shunday o'zining asarlari bilan ajralib turuvchi, kitobxonlar ko'nglidan joy olgan ijodkorlarimizdan biri O'tkir Hoshimovdir. O'tkir Hoshimov XX asr adabiyotida o'z o'rnini va uslubiga ega bo'lgan adib. Uning asarlari oddiy va haqqchilligi bilan ajralib turadi. "Dunyoning ishlari" asari ham ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Bu asar butun dunyo onalariga bag'ishlangan bo'lib, unda o'zining hayotini, xayol olamini, obrazlar orasidagi suhbatlar orqali onasi bilan uyg'unlashtirib tasvirlagan. Shu kichik qissasida dunyoning ishlarini mujassamlashtirgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta'riflaydi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi" [3].

ASOSIY QISM

O'tkir Hoshimov o'zining asari haqida shunday deydi: "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam –onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarning ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog'langan..." [1].

Shunday ekan bu qissa nafaqat o'zbek, balki butun dunyo onalarini portretini o'z ichiga olgan. Hatto asardagi novellalarning har biri o'zgacha ona timsolini ochib bergan. Masalan: "Alla" hikoyasida o'zining kichkina ukasiga onasi aytgan allani eslab qolgani, alla ovozi eshitganda har doim esiga tushishi va har gal eshitganida bir xil bo'lib ketishini aytadi. O'lis tog' qishlog'iga borganda qirg'iz ayol bolasiga aytayotgan alladan ta'sirlanib, xuddi menga aytgandek bo'ldi, deydi. Kislodskka borganda esa bir Sibirlik juvon xonadonida ijarada turadi. Sibirlik ayol bolasiga aytayotgan allasini eshitib, yuragida yana o'sha shirin orziqish uyg'onadi. "Uning ovozi ham onamnikiga o'xshab ketardi", deydi. "Ehtimol, dunyoning bir chetida turib bir odam o'z seviklisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bir chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi... Balki shuning uchun ham ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir" [1.109-b.]. Hatto u o'zining "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida ham hamma ona – bir ona ekanligini iliq fikrlar orqali tasvirlagan. "Amerika bilan O'zbekiston orasi o'n besh ming chaqirim. Avstraliya bilan Kanada orasi yigirma ming chaqirim. Ammo amerikalik senatorning xotini o'z farzandini o'zbekistonlik dehqonni xotinidan kamroq yaxshi ko'rmaydi. Avstraliyalik aborigen ayol o'z farzandini kanadalik millioner ayoldan ko'proq yaxshi ko'rmaydi". [2.15-b.] Onalarimizni vaqtida qadrlashimiz, asrab -avaylashimiz kerakligini biz "Iltijo" hikoyasida ham ko'rishimiz mumkin. Onasi "bir marta meni ham kitob qilib yozsang-chi o'g'lim", deya aytganida, "sizni nimangizni kitob qilaman", degan qahramonimiz, oxirida qilgan ishiga afsuslanib onasining qabri ustida yig'lab, o'z vaqtida qila olmagan vazifasidan afsuslanadi. "Mana o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi sizga o'xshashini xohlayman..." [1.110-b.]. Onalarimizga e'tibor berishimiz, hol ahvol so'rashimiz, faqatgina ish, o'qish, ulfatchilik deya, kunlarni bedor o'tkazayotgan volidalarimizni esimizdan chiqarmasligimiz lozim. Bu esa "Tush" hikoyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Onasining tunlari bedor o'tayotganini sezmagani qahramon, vafotidan keyingina tushunib yetadi. "Men nodon onamning kamuyqu bo'lib qolganiga, yarim kechgacha yuramanmi, tongotar qaytamanmi, onamning chirog'i muttasil lipillab turishiga xo'p ko'nikkan ekanman. Qaysi kuni ishdan keyin moskvalik mehmonlarni aeroportga kuzatib qo'yadigan bo'ldim. Samolyot kechikib uchdi. Yarim kechada uyga qaytsam...hammayoq jimjit. Hamma o'z oromi bilan... Tushimda onam chiroq ko'tarib yurganmish" [1.3-b.]. Ona farzandi uchun har narsaga tayyor turadi, bolasining dardi yonida o'zining dardi ko'rinmaydi. Vaholanki buni hech qachon hech kimga aytgisi kelmaydi. "Dunyoning ishlari" qissasidagi "Gilam paypoq" hikoyasida ham asosiy tushuncha shudir. Hikoya sujeti shundan iboratki, qahramon har yili dam olishga borganda onasiga gilam paypoq olib keladi. Ona esa xuddi noyob narsa topgandek, o'g'lidan faxrlanib uzundan uzun duo qiladi. Farzand esa onasining oyog'i kasalligini va bu o'zi tufayli sodir bo'lganini biladi. Kichkinaligida ko'p kasal bo'ladi, qish payti yaxmalak uchib, muz yegani sababli kechqurun isitmasi chiqib, betob bo'lib qoladi. Ona qo'lidan kelgan hamma ishni qiladi, foyda bermagach Hoji buvining oldiga olib boradi. Qalin qor, oyoqyalang holda farzandim deb yonayotgan onaning ko'ziga o'zining qip-qizil go'shtday bo'lib qolgan oyog'i

ko'rinmaydi. Hoji buvi "oyog'ingizni oldirib qo'yibsiz-ku, qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz cho'loq bo'lib qolasiz", deya ogohlantiradi. O'shandan beri onasining oyog'i kasal va har yili farzand onasining yaxshi bo'lib ketishi uchun duo qilib, gilam paypoq olib keladi. Ona esa doimgidek "mehribon" o'g'li borligini aytib maqtanadi. Kitobning orqa tomonida esa adibning quyidagi so'zlari keltirilgan: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehrli kuch bor. Bu – Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!" [1].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, adibimiz asarlarida ona timsoliga katta e'tibor berilgan hamda asarning sodda va oddiyligi bois har bir inson o'zining onasini qadrlashi muhimligini bemalol tushuna oladi. Shunday ekan, butun boshli nodir asarni o'qib turib, kitobxon onasini yanada yaxshi ko'rmasdan iloji yo'q. Bilasizmi? Dunyo yaralibdiki, unda rassom surat chizarkan, oxiriga o'z belgisini yoki ismini yozadi. Shoir esa she'r yozarkan, eng oxiriga o'z taxallusini qo'yadi. Haykaltarosh bir san'at asari yaratsa o'zining belgisini qadaydi. Lekin bir zot, faqatgina mushfiq bir ayol, ona, to'qqiz oy farzandini asrab-avaylab, qanday qiyinchiliklar bo'lsa barchasiga sabr qilib, dunyoga keltiradi va otasining familiyasi beriladi. Mana! Ona nimaga qodir...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R. Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili." Toshkent-2009.
2. O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" va "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarlari.
3. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari", Toshkent 2005.
4. O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" ,2001.
5. Arxiv.uz.
6. Kutubxona.uz
7. Allaberdiyeva, K. (2019). The Main Neuropedagogic Possibilities of Formation at Children of Senior Preschool Age of Creative Activity. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7, 12.
8. K.X.Allaberdiyeva, (2022). IJODIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 419-423.
9. M.B.Fayzullayeva, (2023). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI. "Экономика и социум" №6(109) 2023.
10. Z.A.Ergasheva, (2023). KAUZALLIK VA SUB'YEKTIVLIK MUNOSABATLARINING VOQELANISHI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 6(1).
11. Сирожиддинова, Ш., & Рахимов, Г. (2021). Улучшение классификации юридических терминов посредством обучения на основе содержания. Общество и инновации, 2(4/S), 57-62.
12. Сирожиддинова, Ш., & Рахимов, Г. (2021). Improvement classification of law terms through content-based learning. Общество и инновации, 2(4/S), 57-62.